

TA'LIM SIFATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY OMILLAR

Matg'oziyev Zarshidbek Tolibovich

Toshkent tumani 14-sonli umumta'lim maktabi Tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ta'lim mamlakat taraqqiyotining asosiy ustuvorlaridan biri bo'lib, unda ishtirok etuvchilar har tomonlama kamol topishi, hamkorlikni yuqori darajada yo'lga qo'yishi hamda zamonaviy ta'limning metodikalarni puxta o'rganishi eng muhim masalalardan biridir. Ta'lim va tarbiyani tubdan isloh qilmasdan turib, hech qanday yangilik yarata olinmaydi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, ota-ona, pedagog, hamkorlik.*

So'nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng muhokama qilinayotgan maktab o'qituvchisi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatli vaziyat hamda uning oqibatlarini shu soha rahbari sifatida meni chuqur o'yg'a soldi.

Xavotirim shuki, biz bugun farzandlarimizning nafaqat bilim olishi, balki tarbiyasini ham butunlay maktabga yuklab qo'yganimiz. Ba'zi ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi va xulqi yuksalishidagi o'rni kundan kun kamayib borayotgandek.

Taniqli jadid olimi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chaqirig'i bilan bizni tarbiya masalalariga katta e'tibor berishimiz zarurligidan o'sha davrdayoq ogoh etgan.

Bugungi zamonaviy dunyoda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar erkin olib borilishi ularning o'zaro majburiyat va mas'uliyatlaridan ozod qilmasligi zarur. O'qituvchi bilim berish asnosida o'z shogirdlariga do'st, o'quvchilar ham ustoziga katta hurmat bilan munosabatda bo'lishlari lozim.

Buyuk mutafakkir Imom G'azzoliy “Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi” deya ushbu nozik jarayonning ahamiyatini ochib bergan.

O'qituvchilarimiz ham unutmashliklari kerakki, ular o'zi ta'lim berayotgan o'quvchilarning dunyoqarashi va shaxsiyati shakllanishidagi eng katta ta'sir ko'rsatuvchi insonlardir. Ustozning har bir so'zi, har bir harakati shogirdning xotirasida muhrlanadi va uning kelajak yo'lini yoritishda xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish borasidagi katta tashabbuslar ortida ham o'qituvchiga bo'lgan katta e'zoz mujassamdir. Ayni vaqtda loyihasi tayyorlanayotgan “Pedagog xodimning maqomi to'g'risida”gi qonunda ham o'qituvchi huquqini himoya qilish, ularning ijtimoiy himoyasini yana-da oshirish kabi muhim hayotiy zaruratlar belgilanmoqda.

Maqsad katta va ezgu. Ustozlarimiz ham davlatimizning ushbu e'tiborini yurakdan his qilgan holda, o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning yuksak tarbiyasi va



go'zal xulqli insonlar bo'lib yetishishlarida g'amxo'rlik qilishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda shaxsiy namuna eng ta'sirchan choralardan biridir.

Hurmatli ota-onalarimiz ham farzandlarining ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishlarida o'z burchlarini unutmasliklarini, ko'z qorachig'imizdek asrab kelayotgan bolalarimiz kelajagi uchun o'qituvchilar bilan doimiy hamkorlik qilib borishlarini istaymiz.

Zero, bolaga bugun berilgan bir hikmat yoki tarbiya ertaga kelajak binosiga ming g'isht bo'lib qo'yiladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali Maktab va maktabgacha ta'limi vaziri Hilola Umarova tomonidan ota-onalarga qilingan murojaat ta'limning bir odami sifatida meni ushbu maqolani yozishga da'vat etdi. Har bir davr va har bir zamonda millatning chin millat bo'lib shakllanishida, jamiyat va davlatning taraqqiy etishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek “Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng ulug'i o'qituvchilik kasbidir”. Darhaqiqat, maktabning inson hayotidagi o'rni alohida ahamiyat kasb etib, hayot va uning qonuniyatlarini shu yerda ustoz deb atalmish zotdan o'rganadi. O'tmishga nazar soladigan bo'lsak, ota-onalar tomonidan «... farzandimning eti sizniki, suyagi bizniki» qabilidagi so'zlar bilan ustoz qo'lga topshirilib, uning butun ta'lim, tarbiyasi muallimga topshirilgan. Shu sababdan ham ana shu davrda yetuk, sog'lom fikrlovchi hamda qalbida vatanga, jamiyatga nisbatan muhabbat kuchli bo'lgan yosh, fidoyi avlodlar yetishib chiqdi. Biz buyuk o'tmishga ega bo'lgan, dunyo taraqqiyot ta'maddunini boshlab bergan, g'arb davlatlari jaholat va ilmsizlik botqog'iga botganida, bizning qalblarda mangu yashovchi ota-bobolarimiz yulduz sanagan millatning avlodlarimiz. Biroq, keyingi vaqtlarda yosh avlod va ota-onalarning ta'limga bo'layotgan munosabati dilimizni xira qiladi. Ilm- bu do'st. Ilm- bu sirdosh, yolg'izlik damlarida yo'ldosh, chorasiz qolganingda maslahatgo'y, el-yurt ichra obro', bitmas-tuganmas boylikdir. Qachonki, uning mag'zi to'liq chaqilgandagina, qiymati insonlar o'rtasida bo'lgandagina. Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'limga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, pedagog va uning maqomi jamiyatda yuqori baholanayotgan bir pallada ijtimoiy tarmoqlarda turli munozaralarga sababchi bo'layotgan aksariyat ota-onalar tomonidan o'qituvchi va uning darsiga xalaqit berilishi, obro'sizlantirilishi kabi holatlar albatta insonni o'yga toldiradi va qalbimizni ma'yus qiladi.

Ta'lim jarayonlarida yosh avlodning o'rni beqiyos bo'lib, uning sifatli bo'lishida bir qator ijtimoiy muhim omillar ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- Zamonaviy ta'limda yosh avlodning qiziqishlarini qamrab olish;
 - O'quvchiga ta'lim beruvchi do'stona munosabatda bo'lib, sog'lom ijtimoi-muhitni yarata olish;
 - Kreativlik va tashabbuskorlikni yosh avlod ongiga sindirish;
 - O'quvchini mustaqil fikrlay olishi va tanqidiy baholash qobiliyatini yanada shakllantirish;
 - Ta'limga bo'layotgan e'tiborni o'quvchilar birgalikda muhokama qilish kabi masalalar.



To`g`ri ba`zida ota-onalar tomonidan ham o`qituvchilar bolalarga sifatli ta`lim bera olmayotganini, sinfda sog`lom ijtimoiy-ma`naviy muhitni yarata olmayotganini, kommunikativ va pedagogic qobiliyati pastligidan turli izohlarini bildirayotganiga ko`zimiz tushadi. Bu borada hozirgi zamon pedagoglariga bir qator talablar qo`yilmoqda.

Buning uchun ta`lim beruvchidan quyidagi sifatlar ustuvor bo`lishi kerak deb o`ylayman:

- O`qituvchi sinf xonasiga nima uchun kirayotganini , aniq maqsadini aniqlab olishi kerak;
- O`qituvchi avvalo o`zi sinf xonasidagi o`quvchilarga nimani berishini tushunib yetishi zarur;
- O`qituvchi darsi davomida o`quvchilarga nima bera oldim kabi savollarga javob topa olishi shart.

Biz bugun globallashib borayotgan jamiyatda yashar ekanmiz , atrofimizda bo`layotgan turli g`oyaviy tahdidlar va mafkuraviy kurashlardan ota-onalar bilan hamkorlikda yosh avlodni har tomolama himoya qilishimiz ko`z yumib keta olmaydigan eng dolzarb muammolardan biridir. Buning uchun “Maktab-oila-mahalla” hamkorligini yanada kuchaytirib , ijtimoiy ma`naviy muhitni yanada sog`lomlashtirib muomala madaniyati, estetika va etika qoidalariga amal qilgan holda “ Ota-onalar universiteti ” faoliyatini har tomonlama kuchaytirish zarur deb o`ylayman. Afsuski, ilm-o`rganish, kasb-hunarga yo`naltirish kabi masalalar yurtboshimiz tomonidan kun e`tirofiga aylantirilgan bo`lsada ayrim ota-onalarning ongidagi g`oyaviy bo`shliqlar tufayli yosh avlodning ta`lim-tarbiya tizimida og`riqli nuqtalar sezilmoqda. Bunga yorqin misol qilib, ota-onalar tomonidanb pedagogning qadr-qimmatini tushurishga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli videolarni ko`rsatish mumkin. Davlatning eng suyangan ustuni ta`lim tizimi bo`lib, uni har tamonlama taraqqiy etishiga barchamiz yelkama-yelka turib harakat qilmas ekanmiz, biz ko`zlagan maqsadga yetisha olmaymiz. Ota onalarning ta`lim jarayonlariga bo`lgan qarashlarini tubdan o`zgartirib, ularni o`qituvchining hamkoriga aylantirish borasida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi bir qator muammolarga chek qo`yishida dasturamal bo`ladi deb umid qilamiz. Bugungi zamonda kreativ fikrlamaslik, tashabbuskor bo`lmaslik, kommunikativlikka jiddiy e`tibor bermaslik boshqalardan nisbat orqada qolishimizga sabab bo`ladi. Har gal ta`lim haqida so`z ketganda, beixtiyor buyuk ma`rifatparvar jadidchimiz Mahmudxo`ja Behbudiyning “Padarqush” piessasi va undagi voqealar yodimga tushadi. Biz bugun millatni saqlab qolish uchun, piessadagi xolatlarga tushib qolmaslik uchun ham uyg`onishimiz, birlashishimiz, ta`limning yo`lida aniq maqsad ostida harakat qilmog`imiz muhim. Davlatimiz tomonidan “Ta`lim to`g`risida” gi Qonunning yangi tahriri, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirining 2022-yil 28-iyuldagi 246-sonli buyrug`i asosida qabul qilingan “Umumiy o`rta ta`lim maktablarida Odob-axloq qoidalari” da ham o`quvchi va ota-onalarning huquq-majburiyatlari aniq belgilab berilgan bo`lsada, huquqiy savodxonlikning sustligi sabab, ota-onalar haq-huquqlarini talab qilishni biladiyu, o`z majburiyatlarini bajarishga kelganda o`zini bilmaslikka oladi. Albatta bunday hol ham ta`limning



oqsoqlanishiga katta ta'sir qiladi. So`zinning yakunida og`riqli so`zlarim bitilgan she`rimni ota-onalarga murojaat tariuqasida keltirib o`tmoqchiman.

Maktabga keldim deb, darsga kirmasa,
Yonida yo kitob, daftar bo'lmasa,
Yuragim achishib aytay bir narsa,
Uyg'oning onalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

Tentirab yurishar go'yo maqsadsiz,
Ko'zida qahr bor, jahl, shafqatsiz,
Dunyoda yashayman desangiz dardsiz,
Uyg'oning otalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

Ilmsiz bo'lmasin, qalbi qotadi,
Qotgan qalbda esa zulm yotadi,
Qo'yib bersak agar yurtni sotadi,
Uyg'oning onalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

Xudodan qo'rqishsin, dinni o'rgating,
Do'st bo'lib yonida Xaqni ko'rsating,
Bolam umidimsan sen deya ayting,
Uyg'oning otalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

Johillik yo'lini tutmasin deyman,
Hayoni tepkilab o'tmasin deyman,
Hayotda g'ofildek yotmasin deyman,
Uyg'oning onalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

Maktabga kelishin nazorat qiling,
Ilmni asosiy maqsad deb biling,
Tilagim ustozning hamkori bo'ling,
Uyg'oning otalar g'aflatda qolmang,
Iltimos farzandlar yonini olmang.

O'qisin, ulg'aysin, kamolga yetsin,



Kelajak kuniga ziyolar bitsin,
Keksalik gashtingiz rohatda o'tsin,
Uyg'oning onalar g'aflatda qolmang,
Otalar iltimos e'tiborsiz bo'lmang.

Xulosa va tavsiyalar:

Xulosa qilib aytganda, biz ertangi kunimizni yanada yorqinroq ko'rishimiz uchun bugun qo'limizda ta'lim olayotgan yosh avlodni har tamonlama kamol toptirib, ota-onalarni pedagogning hamkoriga aylantirishimiz zarur. Amerikada “yo`qotilgan avlod” tushunchasi borligi, bu oilaviy qadriyatlarga katta ta'sir ko'rsatib kelayotganini har birimiz to'liq tushunib yetishimiz kerak. Finlandiya ta'lim tizimidek ularni mustaqil hayotga tayyorlash borasida hamkorlikni kuchaytirishimiz eng dolzarb masalalardan biri deb o'ylayman. Bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya qilaman.

1. Bugungi kun ta'lim-tizimida pedagogning maqomini yanada ko'tarish;
2. O'quvchilarga kompetensiyaviy ta'lim tizimida yondashish;
3. “Ota-onalar Universiteti” faoliyatini yanada kuchaytirish;
4. Ijtimoiy-psixologik muhitni yanada sog'lomlashtirish;
5. Yosh avlodni turli yod g'oyalar ta'siriga tushib qolishni oldini olish;
6. O'qituvchi o'z ustida doimiy ravishda izlanishda bo'lish;
7. Ota-onalarga nisbatan chora ko'rish tadbirlarini yanada kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uzedu.uz
2. Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” kitobi
3. I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” kitobi
4. O'RQ-637-sonli qarori va VM -246-sonli buyrug'i
5. Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarqush” piessasi
6. Muhammadjon Qur'onovning “Milliy tarbiya va yoshlar” kitobi

